

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 126 761,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentyabr oylari bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentyabr oylari narxlariga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 9,7 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	109 297,2	126 761,2	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105 384,5	123 279,8	107,2
mahsulotlarga sof soliqlar	3 912,7	3 481,4	109,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105 384,5	123 279,8	107,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18 475,7	20 897,2	104,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	55 683,1	65 316,7	107,0
sanoat	46 949,6	54 744,1	106,0
qurilish	8 733,5	10 572,6	112,6
xizmatlar	31 225,7	37 065,9	109,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 583,3	11 633,6	112,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5 388,2	6 846,5	112,6
boshqa xizmat tarmoqlari	16 254,2	18 585,8	106,1

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 40 517,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,4 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17,5	17,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	52,9	53,0
sanoat	44,6	44,4
qurilish	8,3	8,6
xizmatlar	29,6	30,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,1	9,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,6
boshqa xizmat tarmoqlari	15,4	15,0




2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 17,0 % ni, sanoat tarmog'i 44,4 % ni, qurilish 8,6 % ni va xizmatlar sohasi 30,0 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,6 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 3,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,6 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 2,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-sentyabrda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 17,0 %), sanoatda – 106,0 % (44,4 %), qurilishda – 112,6 % (8,6 %), xizmatlar sohasida – 109,1 % ni (30 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,3 % (9,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,6 % (5,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,1 % dan (15,0 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentyabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,7 %

YAHM

7,3 %



3,3 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,5 %



7,3 %

Sanoat

6,0 %



15,3 %

Qurilish

12,6 %




10,2 %

Xizmatlar

9,1 %

2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentyabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 110,0 % va xizmatlarda – 108,8 % qayd etildi.

Yanvar-sentyabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik 65 908,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentyabr oylarida – 56 551,2 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 53,5 % ni (2024- yilning yanvar-sentyabr oylarida – 53,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

